

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI PhD.03/27.09.2024.Ped.72.10. RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**TURSUNOV OQIL AMRULLOYEVICH**

**KO‘PKARI - MILLIY ETNIK O‘YIN SIFATIDA, UNING ZAMONAVIY  
SPORT TURLARI TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy  
tarbiya nazariyasi va metodikasi  
13.00.01 - Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Tursunov Oqil Amrulloevich**

Кo‘pkari - milliy etnik o‘yin sifatida, uning zamonaviy sport turlari taraqqiyotidagi ahamiyati.....3

**Турсунов Окил Амруллоевич**

Кoпкaри кaк нaциoнaльнaя этничeскaя игрa, ee знaчeниe в рaзвитиe сoврeмeннoгo спoртa.....25

**Tursunov Okil Amrulloevich**

Кoпкaри as a natioнal ethnic game, its significance in the development of modern sports.....49

**E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI PhD.03/27.09.2024.Ped.72.10. RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**TURSUNOV OQIL AMRULLOYEVICH**

**KO‘PKARI - MILLIY ETNIK O‘YIN SIFATIDA, UNING ZAMONAVIY  
SPORT TURLARI TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomashtirish va adaptiv jismoniy  
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**13.00.01 - Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta‘limotlar tarixi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Ped7350 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida [www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz) hamda “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevich**  
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy oponentlar:**

**Izbullayeva Gulchehra Valeriyevna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Raxmonov Rauf Rasulovich**

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024.Ped.72.10 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2025 yil “\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14, faks (99865) 221-29-14: e-mail; [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025 yil “\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**B.B.Ma‘murov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**A.E.Sattorov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori (PhD), professor

**R.H.Kadirov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi pedagogika  
fanlari nomzodi, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati:** Dunyodagi mavjud bo'lgan xalqlar taraqqiyotida umuminsoniy xarakterdagi milliy sport turlarini rivojlantirish va takomillashtirish ayniqsa ot sporti va u bilan bog'liq qadimiy sport turlarini rivojlantirish masalalari asrlar davomida shakllanib, sayqallashib kelmoqda. Dunyoda xususan O'rta Osiyo xalqlari (o'zbek, tojik, qirg'iz, afg'on va qozoq) orasida ko'pkari ot sporti ommalashtirish va polvonlarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish borasida qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Biroq, tarixning burilish pallasida har bir millatning milliyligi, o'zlikni saqlab qolish, xalqlarning milliy sport turlarini rivojlantirish va ommalashtirish insoniyat olidida turgan global va dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Jahon xalqlarining milliy sport turlari jumladan ot bilan bog'liq sport turlari bugungi globallashtirish va integratsiyalashuv jarayonlarida tobora unifikatsiyalashib, umuminsoniy xarakterga ega bo'lib bormoqda. Ko'pkarichilarni musobaqalarga tayyorlashning yangicha usullarini qo'llash, texnik usullarga o'rgatishning yoshga xos xususiyatlari, jismoniy tayyorgarlikni oshirish, polvonlarni mashg'ulot va musobaqa jarayonini takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu boisdan, ko'pkarida bellashuvlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, polvonlarni asosiy musobaqa faoliyatiga tayyorlash jarayonini takomillashtirish bo'yicha mashg'ulotlar sikllarini samarali ishlab chiqishga zaruriyat yuzaga kelmoqda. Ko'pkarichi polvonlarni musobaqa faoliyatiga tayyorlashning boshlang'ich bosqichida o'quv-mashg'ulot jarayoni tarkibining tuzilishi, mazmuni va metodikasi, amaliy ko'rinishdagi texnik mahorat bilan pedagogik uslublarni deyarli yo'qligi, ko'pkarichi polvonlarni jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish masalasi bugungi kunda dolzarbligi bilan ahamiyatli.

Respublikamizda milliy etnik o'yinning tarkibiy qismi sifatida shakllangan umumxarakterdagi o'yinlarda oshkora xarakterdagi nafaqat milliy o'yinlar balki, qardosh xalqlarning xalq og'zaki eposining ajralmas qismi folklorini, ularning kiyinishi, milliy va madaniyatlar uyg'unlashgan milliy raqs turlari, xo'jalik, iqtisodiy, madaniy va man'aviy an'analari va shu bilan birga tizimli etnopedagogik belgi-simvollarini o'zida aks ettirgan. "Biz yoshlarning mamlakatimiz hayotidagi demokratik jarayonlarda faol ishtirok etishiga, ularning siyosiy va ijtimoiy, jismoniy salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim."<sup>1</sup> Bizning davrimizda jismoniy tarbiya va sport masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng sport sohasi nafaqat mamalakatni dunyoga tanitish, balki xalqimizning sog'ligini mustahkamlash, sog'lom avlodni tarbiyalashning asosiy mezon sifatida katta e'tibor berildi. Hozirgi ijtimoiy jarayonda "oliy sportda erishilgan yutuqlar bilan chegaralanmasdan, ommaviy sportga ham katta e'tibor berish zarurati tug'iladi".<sup>2</sup> Bugungi davr

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston yoshlariga bayram tabrigi. 2019-yil 30-iyun.

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh.M. Oliy sportda erishilgan yutuqlar bilan chegaralanmasdan, ommaviy sportga ham katta e'tibor berishimiz kerak. Xalq so'zi. 2018-yil 20-sentabr.

mukammallashgan milliy sport o'yinlarining qadimgi ildizlarini o'rganish, ularning taraqqiyot bosqichlarini davrlashtirish, bugungi pedagogikadagi ahamiyatini asoslash zarurati tabiiy ravishda ehtiyoj sifatida paydo bo'ladi. Mana shu masalalarni ilmiy-nazariy manbalar asosida yoritish masalasi mavzuning dolzarbligi va zarurati hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-dekabrda "Jamoaviy sport turlarini rivojlantirish va iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-421-son, 2021-yil 11-martdagi "Yilqichilik va ot sportini yanada rivojlantirish hamda zamonaviy beshkurash va polo turini ommalashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5024-son, 2021-yil 5-avgustda "O'zbekistonda yilqichilik, ot sporti, zamonaviy beshkurash va poloni 2025 yilgacha rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida"gi PQ-5211-son, 2021 yil 6-avgustda "Chavandozlar maktablari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5212-son, 2021-yil 5-noyabrda "Sport ta'lim muassasalari faoliyatini 2025-yilgacha rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi PQ-5280-son, hamda 2021-yil 5-noyabrda "2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida"gi PQ-5281-sonli qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi:** Dissertatsiyada O'zbekiston Respublikasi ta'lim, fan va axborot texnologiyalarini rivojlanish vazirligining "Axborotlashgan jamiyat va huquqiy demokratik davlatni ijtimoiy-huquqiy, iqtisodiy-madaniy va ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalarni tizimli shakllantirish orqali ularni amalga oshirish istiqbolli yo'llari" shaklida tizimli amalga oshirish rejalashtirilgan.

**Muammoning o'rganganlik darajasi:** Mustaqillik yillarida respublikamizda ko'pkari sport turi yoki ushbu tadqiqot mavzusiga yaqin yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borgan o'zbek tadqiqotchi olimlarni kiritish mumkin. Jumladan, M.Qodirov, T.S.Usmonxo'jayev, F.Xo'jayeva, U.X.Qoraboyev, R.Yo'ldosheva, G'afur Habubillo, F.Nasriddinov, A.Qosimov, M.Daminov, G.Adambekova, E.G'.G'oziyev, Sh.Anorbetova, V.Mirzayev, T.Abduraximov, I.R.Abdurahmonov, Sh.Galiyevlar ushbu sohada bir qator muhim ilmiy tadqiqotlar amalga oshirganlar.<sup>3</sup>

---

<sup>3</sup> Қодиров М. Ўзбек халқ томоша санъати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1974. –Б.123. Усмонхўжаев Т.С., Хўжаева.Ф. Минг бир ўйин. –Тошкент: Ибн Сино, 1990. –279 б.; Қорабоев У.Х. Ўзбекона ўйинлар. // Гулистон. –Тошкент: Фан, 1991. –№ 9.; Йўлдошева Р. Ўзбек халқ ўйинларининг тарбиявий аҳамияти.– Тошкент: Фан, 1992. –167 б.; Ҳабибулла Ғофур Халқ ўйинлари, кўшиқлари ва аъналарига бир назар. – Тошкент, 1992. –Б.15.; Насриддинов Ф., Қосимов А. Ўзбек халқ -миллий ўйинлар. –Тошкент, 1993. –106 б.; Даминова М., Адамбекова Г. Ўйин машғулотлари. –Тошкент: Ўқитувчи, 1993. –93 б.; Ғозиев Э.Ғ., Анарметова Ш. Ўйин назарияси. –Тошкент: Чўлпон, 1995. –40 б.; Мирзаев.В. Тўптош ўйини. –Тошкент: Чўлпон, 1996. –40б.; Адурахимов Т. Ўзбек халқ ўйинлари ва томошалари. – Тошкент: НДА; 1997. –Б.52-56.; Абдурахманов И.Р. Узбекские народные игры и представления (XX век южные области Узбекистана). Автореф...дис. канд. пед. наук. –Ташкент, 1997. –29 с.; Галиев Ш. Ўзбек болалар ўйин фольклорининг таснифи ва поэтикаси. Филология фанлари номзоди... дис. –Тошкент, 1998. –168 б.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlarida ko'pkari ot sporti rivojlanishi, mashg'ulotlarida kuch, chidamlilik, koordinatsiya kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishga oid ma'lumotlarni V.S.Martinixin, E.M.Peshereva, V.V.Bartold, G.P.Snesarev, S.P.Nesterov, A.Divayev, A.Shishov, A.P.Xaroshkinlar bir qancha tadqiqotlarni keltirib o'tganlar.<sup>4</sup>

Ko'pkari ot sporti va uning tarkibiga kiruvchi jismoniy tayyorgarlik bilan bog'liq barcha sport o'yinlarining qadimiy tayanch nuqtalari qaysi manzillarda va qanday shart-sharoitlarda tashkil topganligi, shakllanishi va taraqqiy etayotgan bosqichlarini tizimli tahlillashga oid tadqiqotlarda samarali izlanishlar olib borgan dunyo olimlaridan M.Jemson, E.Gordon, S.Frechkop, E.E.Kuzmina, Bahouddin O'gellar asarlari tahlil qilinadi<sup>5</sup>.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda shuni xulosa qilishimiz mumkinki, Dunyo miqyosida har bir fan sohasida ilmiy tadqiqotlar sezilarli darajada o'sib bormoqda. Sharq mamlakatlarida esa sport turlaridan biri bo'lgan ko'pkari sportining yetarlicha o'rganilmaganligi, zamonaviy davrgacha ushbu sohada qisqa, ammo yetarlicha tadqiqotlar olib borilmaganligi bilan izohlanadi. Bu esa ushbu yo'nalish bo'yicha tadqiqotlar olib borish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi:** Dissertatsiya ishi Buxoro davlat universitetining tadqiqot ishlari rejasida "Barkamol avlodni ma'naviy-axloqiy, jismoniy tarbiyalashda buyuk ajdodlarimiz an'alaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari" muammosi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** Ko'pkari - milliy etnik o'yin sifatida, uning zamonaviy sport turlari taraqqiyotidagi ahamiyatiga doir ilmiy-nazariy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:** Dissertatsiya mavzudan kelib chiqqan holda, mazkur tadqiqot oldiga quyidagi aniq vazifalar qo'yildi:

- ko'pkari ot sporti mashg'ulotlarida kuch, chidamlilik, epchillik, koordinatsiya, reaksiya tezligi kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan kompleks mashqlarini qo'llash metodikasini ishlab chiqish;

---

<sup>4</sup> Мартынихин В.С. Профилактика и физическая реабилитация остеохондроза поясничного отдела позвоночника в условиях тренировочного процесса у занимающихся конным спортом. // Автореф. дисс. – Москва 2015. –24 с.; Пешерева Е.М. Некоторые игры среди оседлого населения Туркестана. // Бюллетень САГУ. 1925. –Т.2. –С.82-98.; Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Сочинения. –М., 1963. –Т.II. –Ч.1. –С.532.; Снесарев Г.П. К вопросу о происхождении праздничества суннат той в его среднеазиатском варианте. // Занятия и быт народов Средней Азии. –Л., 1971. –Т.3. –С.256-273.; Нестеров С.П. Конь в культурах тюркоязычных племен Центральной Азии в эпоху средневековья. –Новосибирск: Наука, 1990. –С.79.; Диваев А. Древние игры киргизской молодежи. // Туркестанская ведомость. 1907. –№54; Шишов. А. Сарты. / Этнографическое и антропо-логическое исследование. Ч.I. Этнография. –Ташкент: 1904. –С. 225-226.; Шишов А., Хорошкин А.П. Сборник статей, касающихся до Туркестанского края. –Спб., 1876.; Фирсов В. Туркестан и Туркестанские породы лошадей. Туркестанский сборник. 1895. Т.479. – С.218.

<sup>5</sup> Jamson M. Mucanean Religion. –Археology, 1960. –Р. 16-23; Gordon E. Animals as Represented in the Sumerian Proverds and fables. // Сб. Древний мир, –М.:1962. –Р. 105-119.; Frechkop.S. La Specifitedu Chevat de Prjewalsku, Bulletin de Institute des sciences naturel Belgique. Bruxelles. 1965.-vol. XLI. –№29.; Kuzmina E.E The Earliest Evidence of Horse onnection with the Problem of Time and Plase of the Indo-European Unity, -VIII Congres international des sciences prehistoriques et protohistoriques. –Belgrade, 1971.; Bahaeddin Ogel (prof. Dr) Dünden bu'güne.Türk Kültürünün Gelişme Çağları. Türk Dünyası Araştırmaları Vakfi. –Istanbul, 1998. –788 b.

- ko'pkari musobaqalarida sportchilar jismoniy va psixologik tayyorgarligining tashqi namoyon bo'lishi orasidagi o'zaro korrelyatsion bog'liqlikni aniqlash;

- ko'pkari ot sporti etnik o'yin turlari sifatida uning arxaik genezisi, taraqqiyot bosqichlari va globallashtirish sharoitida zamonga mos bo'lgan sport o'yinlari rivojlanishidagi ahamiyati masalasini takomillashtirish va amaliyotga tadbiiq qilish modelini ishlab chiqish;

- ko'pkari ot sporti bilan shug'ullanuvchi sportchilarning jismoniy, texnik, taktika va psixologik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan haftalik sikl mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti:** Ko'pkari ot sport etnik o'yinlarining etnik genezisiga oid arxiv manbalari, ilmiy nazariy adabiyotlar, davriy matbuot materiallari jismoniy tarbiya tizimi tadqiqot obyekti hisoblanadi.

**Tadqiqot predmeti:** Ko'pkari ot sporti bilan shug'ullanuvchi polvonlarning jismoniy va texnik tayyorgarligini rivojlantirish usullari tashkil qiladi.

**Tadqiqot usullari:** Dissertatsiyani yozishda mahalliy va xorijiy adabiyotlardagi ma'lumotlarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish va umumlashtirish, diagnoz (tadqiqot so'rovlari, testlar o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodlar), pedagogik nazorat, pedagogik testlash, ekspert baholash uslubi, prognoz materiallari, eksperimental va matematik-statistik kabi usulblardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ko'pkari ot sporti mashg'ulotlarida kuch, chidamlilik, epchillik, koordinatsiya va reaksiya tezligi kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan kompleks (yelka, qo'l va bel mushaklarini mustahkamlovchi, chidamlilikni oshiruvchi, ot ustida boshqaruv va muvozanatni yaxshilovchi, otda yugurish va manyovr hamda reaksiya va tezkorlikni rivojlantiruvchi) mashqlarni sportchilarning yoshi va jismoniy tayyorgarligiga mos ravishda tizimli qo'llash hisobiga ularning kompleks tayyorgarligi takomillashtirilgan;

ko'pkari musobaqalarida sportchilarning jismoniy (yuqori, o'rtacha, past) va psixologik (ruhiy barqarorlik, strategik fikrlash, jamoaviy muloqot va taktika, tiklanish hamda restavratsiya mashqlari) tayyorgarlik darajalari orasidagi o'zaro korrelyatsion bog'liqlikni aniqlash hisobiga sportchilarning harakat tayyorgarligi va o'zaro muloqotga kirishish, sherigini so'zsiz tushunish qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlari oshirilgan;

ko'pkari ot sporti etnik o'yin turlarining rivojlanish genezisi va taraqqiyot bosqichlari, uning globallashtirish sharoitida zamonga mos sport o'yinlari rivojlanishidagi ahamiyati masalasini takomillashtirish hamda amaliyotga tadbiiq qilish modelining tashkiliy-didaktik komponentlari tarkibiga munozarali o'qitish (discussion-based learning), axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida o'qitish (ICT-learning) kabi o'qitish usullarini kiritish hisobiga talabalarning o'zlashtirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

ko'pkari ot sporti bilan shug'ullanuvchi sportchilarning jismoniy, texnik, taktika va psixologik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan haftalik sikl

mashg'ulotlarini murakkab va tizimli reja asosida olib borish hisobiga mashg'ulotlar yuklamalarini oson o'zlashtirish imkoniyati kengaytirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari:** quyidagilardan iborat:

Ko'pkari ot sportining etnik o'yinlari tarixiy genezisi, taraqqiyot tamoyillari va zamonaviy sport o'yinlari takomillashuvidagi ahamiyatiga oid va zamonaviy sport o'yinlarining etnik tahlillari xususida to'plamlar yaratilgan.

Ilmiy-badiiy adabiyotlarda ot va ko'pkari milliy etnik o'yiniga oid ilmiy-nazariy qarashlarini, Ot sporti o'yinlari va ko'pkari sportining mahalliy urf-odat, an'analar va qadryatlar bilan aloqadorligi masalasini manbaviy ahamiyatga ega bo'lgan adabiyotlar vositasida ishlab chiqilgan;

Ko'pkari-milliy etnik o'yinlarida jamoaviylik va individuallik kategoriyalarining shakllanishi, hozirgi zamon sport o'yinlari bilan mushtarak xususiyatlari aniqlangan;

Ko'pkari sport turining umummilliy etnik o'yin sifatida, zamonaviy sportning tayyorgarlik mashqlari rivojlanishidagi o'rni va tamoyillari negizida o'qitishning ilmiy-pedagogik samaradorligi va tajriba-sinov ishlari, omillari ishlab chiqilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi:** Dissertatsiyada manbalar, manbaviy ahamiyatga ega asarlar, davriy matbuot materiallari, mazkur yo'nalishda tadqiqot olib borgan xorijiy va mahalliy olimlarning tahlillariga asoslanganligi, tadqiqot ishiga mazmunan yaqin bo'lgan dissertatsiyalarning qiyosiy tahlillashuvi, tadqiqotning maqsad va fazilatlari sanoq-sifat jihatdan uyg'unlashuvi, amaliy jihatdan tajriba sinovidan olingan natija, saboqlarning ishga matematika-statistika tahlillari yordami bilan qayta to'ldirilganligi, yakuniy xulosalarni vakolatli davlat organlari orqali dalillanganligi bilan izoh ta'lab qilmaydi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:** Dissertatsiya natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati quyidagicha izohlanadi, tadqiqot ishida olingan ilmiy ma'lumotlar ko'pkari-milliy etnik o'yin sifatida, uning zamonaviy sport turlari va jismoniy mashqlar taraqqiyotidagi ahamiyatini mazmuni, nazariyalari kengaytirishga xizmat qiladi. Ot sport hamda ko'pkari sport turlarining zamonaviy o'yinlar taraqqiyotidagi o'rnini zamonaviy o'yinlar texnologiyasi yondashuvini kengaytiradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqot ahamiyatini yoritishda "O'tli o'yin", "Ot sporti", "Ko'pkari ot sporti o'yinlarining metodikasi", "Umumiy pedagogik ta'limotlar tarixida Ko'pkari sportining o'rnini" "Pedagogika nazaryasi", "Ta'lim va tarbiya metodikasi singari fanlardan yangi darslik, o'quv qo'llanma, majmualar yaratish va darsliklar takomillashuvida foydalanishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

Ko'pkari ot sporti mashg'ulotlarida kuch, chidamlilik, yepchilik, koordinatsiya, reaksiya tezligi kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan kompleks (yelka, qo'l va bel mushaklarini mustahkamlovchi, chidamlilikni oshiruvchi, ot ustida boshqaruv va muvozanat, otda yugurish va manvyor hamda reaksiya va tezkorlik) mashqlarini polvonlarning yoshi va jismoniy tayyorgarligiga qarab tizimli qo'llash bo'yicha tavsiyalar "Milliy va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagi 55-sonli buyrug'i. Ro'yxatga olish

raqami 55-278). Natijada ko'pkari ot sporti bilan shug'ullanuvchi sportchilarning kompleks tayyorgarligi takomillashtirilgan;

Ko'pkari musobaqalarida sportchilarni jismoniy (yuqori, o'rtacha, past) va psixologik (ruhiy barqarorlik, strategik fikrlash, jamoaviy muloqot va taktika, tiklanish va restavratsiya mashqlari) (yuqori, o'rtacha, past) tayyorgarligining tashqi namoyon bo'lishi orasidagi o'zaro korrelyatsion bog'liqlikni aniqlash bo'yicha tavsiyalar Samarqand viloyati ko'pkarichilari mashg'ulot jarayoniga tadbiiq yetilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 27 fevraldagi 02/01-01-77 son ma'lumotnomasi). Natijada polvonlarning harakat tayyorgarligi va o'zaro muloqotga kirisha olish, sherigini so'zsiz tushuna olish qobiliyati 17-18 % ga yaxshilangan;

Ko'pkari ot sporti yetnik o'yin turlarining arxaik genezisining, taraqqiyot bosqichlari, uning globallashuv sharoitida zamonga mos bo'lgan sport o'yinlari rivojlanishidagi ahamiyati masalasini takomillashtirish amaliyotga tadbiiq qilish modelining tashkiliy-didaktik komponentlari tarkibiga muammoli vaziyat, munozara, seminar, konferensiya o'qitish usullarini kiritish bo'yicha tavsiyalar Termiz davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti va Buxoro davlat universiteti ta'lim jarayoniga tadbiiq yetilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 27 fevraldagi 02/01-01-77 son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarning o'zlashtirishi 15-16 % ga oshirilgan;

Ko'pkari ot sporti bilan shug'ullanuvchi sportchilarning jismoniy, texnik, taktika va psixologik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan haftalik sikl mashg'ulotlarini murakkab va tizimli reja asosida olib borish bo'yicha tavsiyalar Surxondaryo viloyati ko'pkarichilari mashg'ulot jarayoniga tadbiiq yetilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 27 fevraldagi 02/01-01-77 son ma'lumotnomasi). Natijada polvonlarning kompleks tayyorgarligi 13-14 % ga yaxshilangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi:** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika miqiyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi:** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta nashr, jumladan OAK tomonidan tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 2 ta, xorijiy ilmiy jurnalalarda 2 ta, respublika miqiyosida ilmiy-nazariy konferensiyalarda 3 ta, xalqaro miqiyosda 4 ta tezis e'lon qilingan.

**Tadqiqotning tuzilishi va hajmi:** Dissertatsiya ishi 125 ta sahifalik matnda bayon etilgan bo'lib, kirish, 3 ta bob, 3 ta rasm, 15 ta jadval, xulosalar va amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti, usullari, ilmiy

yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqotdan olingan natijalarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Ko'pkari-milliy etnik o'yinining qadimgi shakllari va paydo bo'lish omillari**" deb nomlangan birinchi bobida ilmiy-badiiy adabiyotlarda ot va ko'pkari milliy etnik o'yiniga oid ilmiy-nazariy qarashlar, ot sporti o'yinlari va ko'pkari sportining mahalliy urf-odat, an'analar va qadriyatlar bilan aloqadorligi masalasi va ot sporti hamda ko'pkari sport turlarining zamonaviy o'yinlar taraqqiyotidagi o'rning bog'liqligi yuzasidan ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili mos ravishda o'rganib chiqilganligi ilmiy asosda yoritilgan.

Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va metodikasi hamda tarixiga oid ilmiy-uslubiy manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki qadim zamonlarida Markaziy Osiyo va unga tutash mintaqa xalqlarida qadimgi davrlardan boshlab ot va tuya bilan bog'liq chavgon, ko'pkari, ot poyga, tuya poyga kabi xalq o'yinlari yosh avlodda abjirlik, epchillik, shiddatlilik, raqibdan peshqadamlilik, tezkorlik, ekstremal vaziyatlarda tez hamda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga ustuvor vazifa sifatida qaratilganligi xususidagi ma'lumotlar keltirilgan

Samarqand viloyatidagi uloq o'yini tartibi Farg'ona vodiysi hududlaridagidan anchagina o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu hududlarda tashkillangan uloq to'ylarda bir nechta (10 dan ortiq) 20-25 kilogrammli echki so'yilib, (ichi tozalanmagan, boshi oyog'i olingan holda) balandroq joyga, arava ustiga yoki tepalikka (hozirda mashina ustiga) qo'yiladi. U yerdan uloqchi chavandozlar orasiga tashlangan. O'rtaga tashlangan uloqni chavandozlar yerdan olib, taqimlab, belgilangan masofadagi chiziqdan o'tkazishi kerak bo'ladi.

Ot sportida bellashuv maydonlarida qabul qilish tartiblari turlicha bo'lib, tashqi oyoqlar ichki oyoqlarning oldidan o'tadi, ular bilan kesishib, harakat bir qator templar sifatida amalga oshiriladi, oldinga va yon tomonga yo'naltirilganligini uchratishimiz mumkin. (1-rasm)

Ko'pkari (yoki buzkashi) o'yini uchun maydon chizmasi an'anaviy tarzda katta ochiq maydon bo'lib, unda chavandozlar echki yoki qo'y jasadini belgilangan joyga olib borish uchun kurashadilar. Quyida ko'pkari maydoni chizmasining asosiy elementlari haqida ma'lumot va oddiy sxematik tasviri taqdim etiladi:

#### **Ko'pkari maydoni tuzilishi va o'lchamlari**

##### **O'lchamlari (odatda)**

**Uzunligi:** 300 – 500 metr

**Kengligi:** 150 – 200 metr

**Markaziy hudud:** O'yinchilar harakati bo'ladigan ochiq joy

##### **Halqalar (doiralar):**

**Start doirasi (chap yoki o'ng tarafda):** Bu yerda o'yinning boshlanishi yoki tushti (echki jasadi) qo'yiladi.

**G'alaba doirasi (qarama-qarshi tomon):** O'yinchilarning tushtini olib borib tashlashi kerak bo'lgan joy.

##### **Qo'shimcha tavsiyalar**

Har bir halqaning diametri odatda 5-10 metr atrofida bo'ladi.

Maydon atrofida tomoshabinlar va hakamlar uchun xavfsizlik zonasi bo'ladi.

O‘yinlar katta dala yoki stadionda o‘tkaziladi.



**1-rasm. Ko‘pkari maydoni**

Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotlar va tarixiy ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili natijasida aniqlandiki, bugungi kunda ko‘pkari sporti bilan shug‘ullanuvchi polvonlarning jismoniy va psixologik tayyorgarligini tahlil qilish va takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish, ularining tayyorgarligida qo‘llaniladigan vosita va usullarni tahlil qilish hamda takomillashtirish metodikasini ilmiy jihatdan ishlab chiqish, mikro-, mezo- va makrosikl o‘quv yuklamalarining shiddati, hajmi va me‘yorlarining nisbatlarini o‘zgartirish, ko‘pkari sporti bilan shug‘ullanuvchi polvonlarning tayyorgarlik tizimiga tiklanish va o‘tkazish-nazorat sinovlari tadbirlarini tashkil qilish metodikasini kiritish va takomillashtirish borasida yetarlicha tadqiqotlar o‘tkazilmagan.

Dissertatsiyaning **“Ko‘pkari- milliy etnik o‘yinlarida jamoaviylik va individuallik kategoriyalarining shakllanishi, hozirgi zamon sport o‘yinlari bilan mushtarak xususiyatlar”** deb nomlangan ikkinchi bobida ko‘pkari ot sport o‘yining yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati, ko‘pkari milliy etnik o‘yiniga umumiy qoidalar, tarixiylik va zamonaviylik prinsiplari, ko‘pkari ot sporti o‘yinlarida sovrin, maydon hajmi va taktika masalasi, ko‘pkari ot sporti bilan shug‘ullanuvchilarning jismoniy tayyorgarligi dinamikasi bo‘yicha olingan natijalar yuzasidan ma‘lumotlar keltirilgan.

Har bir xalqning madaniyati o‘ziga xos bo‘lib, tili urf-odatlarini, turmush tarzi, o‘yinlarida namoyon bo‘ladi. Ma‘naviy qadriyatlar, me‘yorlar, yutuqlarning davomiyligini saqlash juda muhim, chunki bu meros xalqning millat sifatida yashashining zaruriy shartidir.

Ko‘pkari – o‘zbek xalqining asrlar osha davom etib kelayotgan milliy sport o‘yidir. Tarixga nazar tashlasak, ko‘pkarida ishtirok etgan polvonlar doimo o‘zining kuch-qudrati, chaqqonligi va matonati bilan el ardog‘ida bo‘lgan. Bizning olib borgan izlanishlarimiz davomida ko‘pkari bilan muntazam shug‘ullanadigan

polvonlarda jismoniy sifatlar, xususan kuch, tezkorlik va chidamlilik kabi fazilatlar yuqori darajada rivojlanganligini aniqlashga muvaffaq bo'ldik. Ushbu sport turi nafaqat jismoniy, balki ruhiy jihatdan ham polvonlarni chiniqtiradi.

### 1-jadval

#### Qashqadaryo viloyati ko'pkari ot sporti bilan shug'ullanuvchilarning jismoniy tayyorgarligi (n=12)

№	Jismoniy tayyorgarlik testlari	Tadqiqot boshida	
		$\bar{x} \pm \delta$	V %
1.	400 metrga yugurish mashqi (Daq/son)	1,46±0,25	17,1
2.	3 kilometrga yugurish mashqi. (Daq/son)	14,54±2,18	14,9
3.	4x10 mga mokisimon yugurish (Soniya)	13,62±1,52	11,1
4.	Turnikda tortilish (marta)	14,69±1,83	12,4
5.	Kuch chidamliligini baholash testi: qo'llarni bukib yozish (marta)	29,46±3,81	12,9
6.	Bruslarda burchak bo'lib tayanish, (sek.)	5,84±0,75	12,8

Ushbu jadval Qashqadaryo viloyatida ko'pkari bilan mashg'ul bo'lgan 12 nafar chavandozning tadqiqot boshidagi jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini aks ettiradi. Jadvalda sportchilarning 400 metrga yugurish tezligi (daqiqada va soniyada), 3 kilometrga yugurish vaqti (daqiqada va soniyada), 4x10 metrga mokisimon yugurish tezligi (soniyada), turnikda tortilish soni (marta), qo'llarni bukib yozish mashqini bajarish soni (marta) va bruslarda burchak holatida tayanib turish vaqti (soniyada) bo'yicha o'rtacha natijalari keltirilgan. Har bir natija bo'yicha o'rtacha qiymatlar ( $\bar{x}$ ), standart chetlanishlar ( $\sigma$ ) hamda variatsiya koeffitsientlari (V%) hisoblab chiqildi. Guruhlar o'rtasidagi farqning statistik ahamiyatliligi Studentning t-testi (t) va p-qiymati (p) yordamida aniqlandi. Ushbu dastlabki ma'lumotlar mashg'ulot jarayonini optimallashtirish va kelgusida tajriba davomida qo'llaniladigan metodikalarning samaradorligini baholash uchun muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda, ilmiy tadqiqot doirasida Jizzax viloyatida ko'pkari ot sporti bilan shug'ullanuvchi 15 nafar sportchining jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash maqsadida tadqiqot o'tkazildi.

### 2-jadval

#### Jizzax viloyati ko'pkari ot sporti bilan shug'ullanuvchilarning jismoniy tayyorgarligi (n=15)

№	Jismoniy tayyorgarlik testlari	Tadqiqot boshida	
		$\bar{x} \pm \delta$	V %
1.	400 metrga yugurish mashqi (Daq/son)	1,44±0,24	16,6
2.	3 kilometrga yugurish mashqi. (Daq/son)	14,52±2,15	14,8
3.	4x10 mga mokisimon yugurish (Soniya)	13,59±1,49	10,9
4.	Turnikda tortilish (marta)	14,65±1,81	12,3
5.	Kuch chidamliligini baholash testi: qo'llarni bukib yozish (marta)	29,45±3,75	12,7
6.	Bruslarda burchak bo'lib tayanish, (sek.)	5,81±0,72	12,3

Jizzax viloyatida chavandozlarning chidamlilik sifatlarini o'rganish maqsadida 3 kilometrga yugurish mashqi qo'llanildi. Tadqiqotning dastlabki bosqichida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, sportchilarning o'rtacha ko'rsatkichi  $14,52 \pm 2,15$  daqiq/soniya bo'lib, variatsiya koeffitsienti 14,8% ni tashkil etdi.

Matematik tahlil natijalari o'rtacha ko'rsatkichning statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini tasdiqladi ( $t = 2,40$ ;  $p < 0,05$ ).

Shuningdek, tajriba boshida Jizzax ko'pkari sportchilari tomonidan 4x10 metrga mokisimon yugurish testi o'tkazildi. Bu test bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich  $13,59 \pm 1,49$  soniya sifatida aniqlanib, variatsiya koeffitsienti 10,9% ni tashkil etdi. Statistik tahlil natijalari ushbu ko'rsatkich ham statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko'rsatdi ( $t = 3,03$ ;  $p < 0,01$ ).

**Ko'pkari mashg'ulotlari samaradorligini oshiruvchi mashqlar** haqida gapirganda, sportchilarni jismoniy, ruhiy va texnik jihatdan tayyorlash muhim o'rin tutadi. Ko'pkari – bu nafaqat ot ustida harakat qilish, balki kuch, chidamlilik, muvozanat, tezkorlik va strategik fikrlashni ham talab qiladigan o'yin. Quyida ko'pkari ishtirokchilari uchun mashg'ulot samaradorligini oshiruvchi mashqlar turlari keltirilgan:

1. Jismoniy tayyorgarlik mashqlari;
2. Ot bilan bog'liq maxsus mashqlar;
3. Reaksiya va tezkorlik mashqlari;
4. Psixologik tayyorgarlik;
5. Tiklanish va restavratsiya mashqlari.

Ko'pkari ot sporti bilan shug'ullanuvchilarning mashg'ulotlari murakkab va tizimli reja asosida tashkil etiladi. Ushbu reja sportchilarning jismoniy, texnik, taktika hamda psixologik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, haftalik sikl shaklida tuziladi. Mashg'ulotlar yuklamasi, dam olish va tiklanish kunlari ham hisobga olinadi.

Quyida ko'pkari bilan shug'ullanuvchi chavandozlar uchun haftalik mashg'ulot rejasi namunasi keltirilgan.

### 3-jadval

#### Ko'pkari sportchilari uchun haftalik mashg'ulotlar tuzilishi (namuna)

<b>Kun</b>	<b>Mashg'ulot turi</b>	<b>Mazmuni</b>	<b>Davomiyligi</b>
<b>Dushanba</b>	Umumiy jismoniy tayyorgarlik (UJT)	Yugurish (3-5 km), kuch mashqlari (press, tizza bukish, tortinish), cho'zilish	60 daqiqa
<b>Seshanba</b>	Ot bilan texnik mashg'ulot	Otni boshqarish, to'xtash, aylanish, g'alva olishga tayyorlov mashqlari	75-90 daqiqa
<b>Chorshanba</b>	Maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT)	Og'irlik ko'tarish, pastga egilish, koordinatsion mashqlar	60-75 daqiqa
<b>Payshanba</b>	Ot bilan muvozanat va tezlik mashqlari	Tez yurish, galop, to'xtab-harakatlanish, ot ustida muvozanat	75 daqiqa
<b>Juma</b>	O'yinli va taktika mashg'uloti (jamoaviy)	Raqibga yaqinlashish, yo'lni to'sish, g'alvani olish simulyatsiyasi	60-75 daqiqa
<b>Shanba</b>	To'liq simulyatsion ko'pkari mashg'uloti	Real sharoitdagi ko'pkari simulyatsiyasi, guruhli o'yin, musobaqaviy vaziyatlar	90-120 daqiqa
<b>Yakshanba</b>	Dam olish yoki faol tiklanish mashg'uloti	Cho'zilish, yengil yurish, sauna, massaj yoki suzish	30-45 daqiqa (ixtiyoriy)

Ko'pkari ot sporti og'ir, ammo milliy madaniyatimizda muhim o'rin tutadigan sport turidir. Chavandoz polvonlarning jismoniy tayyorgarligini tizimli ravishda

shakllantirish ularning maydondagi samaradorligini oshirish, jarohat olish xavfini kamaytirish va sport natijadorligini yuqori darajada ta'minlash imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“Ko‘pkari-milliy etnik o‘yin sifatida, uning zamonaviy sport turlari va jismoniy mashqlar taraqqiyotidagi ahamiyati tamoyillari asosida o‘qitish tajriba-sinov ishlar samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobida ko‘pkari-milliy etnik o‘yin sifatida, uning zamonaviy sport turlari va jismoniy mashqlar taraqqiyotidagi ahamiyati tajriba-sinov ishlarining borishi, mavzuga oid tajriba-sinov ishlari (talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari) va ko‘pkari ot sporti bilan shug‘ullanuvchilarning tadqiqot oxirida, jismoniy tayyorgarligi dinamikasi tadqiqotdan so‘ng tahlil qilingan. Shuningdek, OTMLlarda “Sport pedagogik mahoratini oshirish (ot sporti)” fanining o‘quv dasturi 61010300 –“Sport faoliyati (ot sporti)” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha talabalar uchun O‘zbekistonda va jahonda ot sportini rivojlanishi, ot minishga o‘rgatish (o‘qitish), sportchilarni tayyorlash jarayonini boshqarish masalalari bo‘yicha yetarli va zarur amaliy bilim beriladi. Jismoniy tarbiya va sport, xususan ot sporti bo‘yicha murabbiylik, trenerlik va tashkilotchilik ishlarini amalga oshirish hamda ushbu jarayonlarni mustaqil boshqarish malaka va ko‘nikmalarini eganlashlari uchun majburiy fan sifatida ma‘ruza, amaliy, seminar hamda mustaqil ta‘lim ishlari olib borilyapti.

Fanning maqsadi biz olib borayotgan tadqiqotning maqsadi va dolzarbligini belgiga mutanosib holda talablarda nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, ot sporti bo‘yicha talabalarda ot sportining tarixi va ot sportidagi ilmiy ishlar to‘g‘risida tushunchalar bo‘yicha bilimga, musobaqalarda ishtirok etish va uni tashkillashtirishga oid kasbiy-pedagogik malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish hamda shakllantirishga qaratilganda ushbu fan bo‘yicha quyidagi mavzular doirasida talabalarda kasbiy kompetensiyalar shakllanadi.

#### 4-jadval

#### Dastur bo‘yicha ko‘rsatilgan mavzularni tadqiqotimiz doirasida nazariy metodologik asoslarni boyitishga xizmat qiladi

№	Mavzular
1.	Ot sportida asosiy mashqlar va otda yurish elementlarini bajarish amaliyoti
2.	Asosiy to‘siqlarni yengib o‘tish mashqlari
3.	Ochiq maydonlar hamda dala krosslarida ot minish va to‘siqlarni oshib o‘tish amaliyoti
4.	Otning boshlang‘ich tayyorgarligi
5.	Otni egar ostida yurish asoslariga o‘rgatish (tekis joyda yurish)
6.	Ot yo‘rttirish
7.	Tayyorgarlik asoslari
8.	O‘rta va o‘ta og‘ir darajadagi mashq va elementlar
9.	Chavandozga ot minish asoslarini o‘rgatish

Birinchi navbatda taqdim etiladigan ta‘lim mazmunining asosiy mohiyati va maqsadini aniqlash lozim. O‘quv materiallari va ta‘lim mazmunining minimal hamda maksimal darajalarini tanlashda ta‘lim mazmunini modernizatsiyalashning konseptual asoslariga tayaniladi. O‘quvchilarga taqdim etiladigan bilimlarni turli o‘quv fanlarini integratsiyalash asosida uyg‘unlashtirish, ularga xalqimizning qadriyatlarini egallashga yo‘naltiradigan bilimlar va axborotlarni singdirish, hissiy hamda ijodiy faoliyat tajribasiga asoslanish nihoyatda zarur. Ta‘lim mazmunining

ushbu elementlarini barcha o'quv predmetlari mazmuniga singdirish, maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarda bilimlarni o'zlashtirish, ularning mazmunini idrok etish, bilish ko'nikmalarini shakllantirish nazarda tutiladi.

Ko'pkarini milliy etnik o'yin sifatida, uning zamonaviy sport turlari va jismoniy mashqlar taraqqiyotidagi ahamiyatini o'rganish asosiy maqsadimiz hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda shu kunga qadar rivojlanib kelgan pedagogik fikrlarning asosiy mazmunini o'rganish bilan birgalikda milliy etnik o'yin muammolarni amaliy ehtiyojlardan kelib chiqib tanlash va tadqiq etishni, shuningdek, pedagogik tadqiqotlarning zamonaviy sport turlari va jismoniy mashqlar taraqqiyotini takomillashtirishga ham e'tibor qaratildi.

Ta'lim mazmunida bilimlarni qisqartirish emas, balki ularni integratsiyalash va unifikatsiyalash yo'lidan borish lozim. Bilimlarni ta'lim mazmunidan sun'iy tarzda ajratib olish mumkin emas. Ta'lim mazmunida o'quvchilarning hissiy-qadriyatli, ijodiy va boshqa faoliyat turlarini shakllantirish nazarda tutiladi. Ta'lim mazmunidagi bilimlarni boshqa qismlarni kengaytirish hisobiga qisqartirmaslik lozim.

## 5-jadval

Respondentlar o'rtasida o'tkazilgan savol-javob natijalari. (5-jadval)

### Respondentlar va talabalardan olingan savol-javob ishlari natijalari

№	Respandentlar	%	№	Talabalar	%
1.	Yaxshi biladi	40%	1.	Bilimga ega	10%
2.	Umumiy tushunchaga ega	30%	2.	Olimlar haqida eshitgan	15%
3.	Tushunchaga ega emas	20%	3.	Tushunchaga ega emas	35%
4.	Bilish lozim va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish kerak deb biladi	10%	4.	Bilishni ho'xlaydi	40%

Respondent-talabalardan olingan javoblar tahlili natijalari quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi:


1. Muammo yuzasidan talabalarning bilimi va tushunchalari yetarli darajada emas.

2. Ko'tarib chiqilgan muammoning dolzarb ekanligi hamda hozirgi davrda sog'lom barkamol shaxsning samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini tushunadi.

3. O'qituvchilarning muammo yuzasidan ma'lum ilmiy-metodik taklif va tavsiyalarga zarurligi ma'lum bo'ldi.

4. Mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va pedagogika sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, jismoniy tarbiya nazariyasi hamda pedagogika tarixi va nazariyasining yo'nalishlari haqida zarur ma'lumotlarni egallash lozim deb hisoblanishi ma'lum bo'ldi.

Demak, tajriba-sinov ishlarining xulosasi shundan iboratki, Ko'pkari- milliy etnik o'yin sifatida, uning zamonaviy sport turlari va jismoniy mashqlar taraqqiyotidagi ahamiyati o'rganish to'g'risida talabalar yetarlicha bilimga ega emas.



**2-rasm. Ko'pkari- milliy etnik o'yin sifatida, uning zamonaviy sport turlari va pedagogik fikrlar rivojining prognostik modeli**

O'qituvchi tomonidan talabalar diqqatini o'ziga jalb etish hamda ko'riladigan masalaning mohiyatini anglatish maqsadida va rag'bat uyg'otishga va motivatsiya uyg'otishga turtki bo'ladigan quyidagi 3 ta muammoli savollar o'rta tashlanadi:

1. Ko'pkari- milliy etnik o'yin sifatida, uning zamonaviy sport turlari va jismoniy mashqlar taraqqiyotidagi ahamiyatiga oid qanday fanlarni bilasiz?

2. Ko'pkari- milliy etnik o'yin sifatida, uning zamonaviy sport turlari va jismoniy mashqlar bajarish uchun siz istiqomat qiladigan mahallada imkoniyat mavjudmi?

3. Ko'pkari- milliy etnik o'yinlarning qaysi turlarini bilasiz, ularning qanday o'tkazilishi haqqida ma'lumotga egamisiz?

Muammo yuzasidan talabalar tushuncha va yo'nalishlariga qarab 3 ta kichik guruhga bo'linadi hamda har bir guruh yaxlit holda o'zining Ko'pkari- milliy etnik o'yin sifatida, uning zamonaviy sport turlari va jismoniy mashqlar taraqqiyotidagi ahamiyatini taraqqiy ettirishda eng maqbul deb topgan ma'lumoti haqida taqdimotini tavsiya etadi va o'z farazini himoya qiladi.

## 6-jadval

### Respondent-talabalari orasida tashkil etilgan munozara darslari, mavzulari va savollar.

(Maxsus kurs asosida) №	Mavzu	Munozara uchun savollar	Mustaqil tarzda o'rganish uchun adabiyotlar
1.	Ko'pkari- milliy etnik o'yin sifatida, uning zamonaviy sport turlari va jismoniy mashqlar bajarish.	1. Ko'pkari- milliy etnik o'yin sifatida, qaysi turlari bildirilgan? 2. Mustaqillik yillarida milliy etnik o'yinlarini tashkil qilishning shart-sharoitlari nimalardan iborat?	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-iyundagi PQ-5149-son qarori
2.	Ilmiy-badiiy adabiyotlarda ot va ko'pkari milliy etnik o'yiniga oid ilmiy-nazariy qarashlar.	1. Milliy etnik o'yinlari to'g'risidagi g'oyalar qanday rivojlangan? 2. Ko'pkari- milliy etnik o'yinlarning pedagogik nazariyasi	Yo'ldoshev S.V. Farg'ona vodiysi aholisining xalq o'yinlari. Tarix fan.nomz. dissert. avtoref. Toshkent. 2019. B.15

Tajriba-sinov jarayonida olingan natijalarning tahlili 5 ballik tizim asosida quyidagi uch mezon asosida alohida-alohida baholandi:

